# ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI XALQARO ORGANLAR VA ULARNING VAZIFALARI

**Abduaxatov Shaxrux Zokir o`g`li**

**Annotatsiya:** Atrof-muhitni muhofaza qilishga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish mexanizmini takommillashtirish, milliy ekologiya qonunchiligini xalqaro qonuninlarga moslashtirish, ikki va ko'p tomonlama shartnomalarni ijro etish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish hamda ular yuzasidan vujudga keluvchi majburiyatlarni bajarish borasida kelib chiqadigan munosabatlarining kompleks ilmiy tadqiqoti natijasida olingan xulosalar va tushunchalar xalqaro ekologiya huquqi fanining ilmiy-nazariy asoslari rivojlanishiga qulay zamin yaratib, undan "Xalqaro ekologiya huquqi", "Xalqaro huquq", "Ekologiya huquqi", "Xalqaro shartnomalar huquqi" kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.Tadqiqotning yakunida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi tadqiqot ob'ektining huquqiy asoslari yanada mukammallashishi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro-huquqiy normalarning implementatsiyasi orqali xalqaro hamkorlik masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirilishi, mazkur soha bo'yicha ikki va ko'p tomonlama shartnomalardan kelib chiqadigan munosabatlarining tashkiliy – huquqiy jixatdan rivojlanishi bilan amaliy ahamiyatga egadir.

**Kalit so`zlar:** Atrof muhitning ifloslanishi, ekologi muammolar, havoning ifloslanishi, suv tanqislik muammosi.

Bugungi kunda inson hayot faoliyati uchun qulay ekologik shart-sharoit yaratish, odamlarning hayotiy manfaatlari – salomatligini ta'minlash, barqaror ekologik vaziyatni vujudga keltirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Keyingi yillarda Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin respublika hukumati atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu borada xorijiy davlatlar, tashkilotlar, uyushmalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish, ular bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Hozirgi paytda atrof-muhitning xilma-xil muammoli jihatlari bilan shug'ullanuvchi bir qancha xalqaro (hukumatlararo va nohukumat) universal va regional tashkilotlar mavjud.

BMT tizimi doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro boshqaruv mexanizmi turli organlar, muassasalar, tashkilotlar tashkil etadi. BMT Nizomga muvofiq, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga va ushbu maqsadga erishish uchun davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun markaz bo'lishga chaqiradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari BMTning Bosh organlari: Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash (EKOSOS) ekologiya masalalari bilan muntazam shug'ullanadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiy komissiyalar, YUNKTAD, YUNIDO, PROONning muttasil diqqat markazida turadi. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikni tashkil etish tizimida Bosh Assambleya Markaziy o'rinni egallaydi, bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq har qanday masalalarni muhokama qilishi imkoniyatini beradi.

Shuningdek, Bosh Assambleya global ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha kelishilgan siyosiy harakatlarni amalga oshirish uchun tegishli forumlar tashkillashtiradi va davlatlarning atrof-muhitga nisbatan xalqaro javobgarligi, hozirgi va kelajak avlodlar uchun yer tabiatini

saqlab qolish uchun davlatlarning tarixiy javobgarligi to'g'risida loyiha va undan kutulayotgan ekologik istiqbol, insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlari manfaati uchun global iqlimni himoya qilish bo'yicha muhim dasturlar ishlab chiqadi. Bunda BMT tizimidagi boshqa tashkilotlar hamda uning mintaqaviy komissiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning Sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (YUNIDO), YUNESKO, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) kabi ixtisoslashgan muassasalarining har biri o'z sohasi bo'yicha atrof-muhit muhofazasiga oid qoidalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro ekalogiya huquqida universal organlardan biri bu Xalqaro Huquq Komissiyasidir(XHK). Xalqaro huquq komissiyasi (XHK) xalqaro huquqning kodifikatsiyasini va ilg'or rivojlanishini, shu jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari xuquqbuzarliklar uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik mavzusini ishlab chiqishda, shuningdek xalqaro huquq bilan taqiqlanmagan faoliyat turlarining zararli oqibatlari uchun javobgarlik masalalarini ko'radi. Komissiya tomonidan xavfli faoliyatlardan 2001- va 2006-yillarda transchegaraviy zararni oldini olish va xavfli faoliyat natijasida yuzaga kelgan transchegaraviy zarar holatlarida zararni taqsimlash bo'yicha loyihalarini tayyorlangan. Komissiya shuningdek, xalqaro suv oqimlaridan noqonuniy foydalanish bo'yicha loyiha va dasturlar ishlab chiqqan. 2002-yildagi XHKning ish dasturida birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mavzusi kiritilgan bo'lib, unda komissiya suv resurslari, xususan, yopiq er osti suvlari, shuningdek, neft va gaz konlari, shu jumladan yagona geologik tuzilmalarga e'tibor qaratishni rejalashtirgan. 2008-yilda XHK transchegaraviy suv oqimlari huquqi bo'yicha o'ziga xos loyihalarini o'z ichiga olgan hisobotni Bosh Assambleyaga taqdim etgan. XHK bugungi kunda o'zining xalqaro miqyosda atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha muvoafiqqiyatli loyiha va jiddiy maqalalri bilan dunyo hamjamiyatini atmasfera havosini, suv va boshqa resurslarni asrashga chaqirib kelmoqda.

BMT tizimi doirasida muvofiqlashtirishni ta'minlash va atrof-muhit manfaati uchun hamkorlikni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan asosiy atrof-muhit organi – Nayrobida (Keniya) joylashgan YUNEP.

Maxsus xalqaro tashkilot YUNEP haqida alohida to'xtalib o'tish joizdir. YUNEP (BMT atrof-muhit bo'yicha dasturi) bosh Assambleyaning 1972-yil 15-dekabrdagi "Atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha tashkiliy va moliyaviy tadbirlar" (XXVII) rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, YUNEPning mandati va roli bir qator xalqaro hujjatlar bilan tasdiqlangan. YUNEPning atrof-muhit va rivojlanish konferentsiyasining qarorlarini amalga oshirishda yanada kengroq va faol rol o'ynash zarurligini ta'kidlab o'tish darkor. YUNEP boshqaruvchilar Kengashi va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Nayrobiya deklaratsiyasida YUNEPning 1997-yildagi roli va mandati bo'yicha qabul qilinganida, YUNEP "BMTning atrof-muhit sohasidagi asosiy organi" ekanini va u "Global ekologik kun tartibini belgilovchi, BMT tizimi doirasida barqaror taraqqiyotning ekologik tarkibiy qismini izchil amalga oshirishga ko'maklashadigan va global atrof-muhit manfaatlarining nufuzli himoyachisi bo'lgan yetakchi global ekologik organlar rolini YUNEPNING mandati BMT bosh Assambleyasining 19-maxsus sessiyasida va 1997-yilgi Malmo deklaratsiyasida ko'rib chiqildi. YUNEPNING asosiy organi davlatlar vakillaridan tashkil topgan boshqaruv Kengashi bo'lib, 58 a'zolari to'rt yil davomida bosh Assambleya tomonidan "adolatli geografik vakillik" tamoyiliga muvofiq saylanadi. YUNEP boshqaruv kengashi EKOSOS orqali o'z ma'ruzalarini Assambleyaga taqdim etadi. YUNEP tarkibida doimiy vakillar qo'mitasi va Kotibiyat ham mavjud.

YUNEP doirasida huquqiy masalalar ishlab chiqiladi va konvensiyalarni tayyorlash borasida tashabbuskorlik ko'rsatiladi. YUNEP vakillari turli muammolar bo'yicha bitimlar ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladigan ko'plab konferensiyalarda ishtirok etadi. Boshqaruvchilar kengashi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- tashkilot faoliyatiga umumiy rahbarlik va BMT tizimi doirasida insonni o'rab turuvchi atrof-muhit sohasiga taalluqli dasturlarni muvofiqlashtirish;
- yuzaga keladigan muammolar hukumatlar tomonidan tegishli tartibda ko'rib chiqilishiga erishish maqsadida jahon miqyosida atrof-muhitning holatini muntazam kuzatib borish;
- olimlar va boshqa professional jamoalarning atrof-muhit haqidagi bilimlarni olish va baholashga, shuningdek, kerak bo'lganda BMT tizimi doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnik jihatlariga o'z hissasini qo'shishiga yordam berish;
- atrof-muhit jamg'armasi resurslaridan foydalanish dasturini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va shu maqsadda amalga oshirilayotgan siyosatga oid zarur tavsiyalar berish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va hokazo.

YUNEP qarorgohi Nayrobida (Keniya) joylashgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari xalqaro huquqning inson huquqlari, dengiz huquqi, havo huquqi, kosmik huquq va hatto qurolli mojarolar huquqi kabi turli sohalariga taalluqli bitimlarda o'ziga xos tartibga solish obyektiga aylanmoqda.

YUNEP atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro huquq normalarini rivojlantirishga ko'p e'tibor bermoqda. Programma universal va mintaqaviy konvensiyalar hamda bitimlar ishlab chiqilishiga ko'maklashmoqda. YUNEPningo'rta muddatli strategiyasida (United Nations Environment Programme Medium-term Strategy) 2010-2013 yillarda" Atof-muhitni rivojlantirish" dasturi oltita strategik yo'nalishga ajratildi: ilmiy bilimlar va YUNEPning qiyosiy afzalliklarga ega bo'lgan sohalari va uning faoliyati hal qiluvchi rol o'ynashi mumkinligini, global va mintaqaviy forumlarda ustuvorligini hisobga olib, YUNEP o'zining ustuvor yo'nalishi sifatida quyidagilarni belgilab oldi:

- iqlim o'zgarishi;
- falokatlar va nizolar;
- ekotizim boshqaruvi;
- ekologik rahbarlik;
- zararli moddalar va xavfli chiqindilar;
- resurslardan foydalanish samaradorligi barqaror iste'mol va ishlab chiqarish.

Yuqoridagi yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida YUNEP tashabbusi bilan mintaqaviy dengiz – O'rta yer, Qizil dengizlar, shuningdek Fors qo'ltig'i va boshqalarda dengiz muhitini muhofaza qilishga qaratilgan dastur amalga oshirila boshlandi.

**XULOSA**

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab barcha sohalar qatori ekologiya sohasini isloh qilish, ushbu sohada xalqaro hamkorlikning amaldagi holatini tubdan yaxshilash borasida ko'plab ishlarni amalga oshirildi.

O'zbekistonni jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi ekanligini bugungi kunda dunyoning barcha davlatlari va tashkilotlari tan olmoqda. 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'lish orqali davlatimiz xalqaro maydonda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida xamkorlik uchun yo'l ochdi. Ushbu tashkilotning xalqaro doirada global ekolgik barqarorlikni saqlash borasida qabul qilgan xalqaro hujjatlarini implementatsiya qilish asosida milliy qonunchilik tizimi zamon bilan hamnafas takomillashtirib borildi. Atrof-muhitni himoya qilsih sohasidagi BMTning dasturlariga va BMT doirasidagi universal va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lish orqali Respublikamizda ekolgik tizimda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladigan loyiha va qonunlar ishlab chiqish uchun zamin yaratildi. Ushbu tashkilotlarga a'zolik orqali O'zbekiston global miqyosda Orol dengizi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda dunyo hamjamiyatidan amaliy yordam olishga muvoffiq bo'ldi. Hozirgi kunda yangi xalqaro konvensiyalarni va shartnomalarni milliy qonunchillika implementatsiya qilish orqali atrof-muhitni himoya qilsih shohasida yanada rivojlanishga erishmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1) Рамочная конвенция ООН о изменении климата (Нью-Йорк, 9 мая, 1992 г.) http://lex.uz/docs/2598545

2) Конвенция ООН о биологическом разнообразии (Рио-де-Жанейро, 5 июня 1992 г.) http://lex.uz/docs/2667242

3) Конвенция ООН по борьбе с опустыниванием (Париж, 17 июня, 1994 г.) http://www.lex.uz/docs/2615710

4) Венская конвенция об охране озонового слоя (Австрия, 22 марта 1985 г.) http://lex.uz/ru/docs/2597146

5) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son.

6) "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi, 07.02.2019 y., 03/19/518/2589-son.

7) "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 978-modda;

8) "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 487-modda;